

**O‘ZBEKISTONDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHOTLARNING
IQTISODIY-FALSAFIY ASOSLARI**

Muallif: Mamatkulov Eldor Safarovich FF.F.D(P.H.D)

Termiz Davlat Universiteti falsafasi kafedrası katta o‘qituvchisi

Diyorbek Ro'ziyev Rustam o'g'li

Termiz Davlat Universiteti 2 bosqich talabasi

893rustamivich@gmail.com + 998 91 232 23 06

Annotatsiya (O‘zbekcha)

Ushbu maqolada O‘zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning falsafiy asoslari, ularning maqsadi va strategik yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Islohotlarning asosida bozor mexanizmlarini kuchaytirish, davlat boshqaruvini optimallashtirish, iqtisodiy liberallashtirish, shaffoflikni oshirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish kabi ustuvor tamoyillar yotadi. Maqolada islohotlarning amaliy natijalari, mavjud muammolar va ularga yechim bo‘ladigan takliflar ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy islohotlar, falsafiy asoslar, bozor iqtisodiyoti, shaffoflik, davlat boshqaruvi, liberallashtirish, inson kapitali, raqobat, modernizatsiya.

Аннотация (Русский)

В статье рассматриваются философские основы и ключевые направления экономических реформ, проводимых в Узбекистане. Основное внимание уделено усилению рыночных механизмов, повышению прозрачности, оптимизации роли государства, развитию человеческого капитала и расширению международного экономического сотрудничества. Также анализируется эффективность текущих реформ, существующие проблемы и предлагаются возможные пути их решения.

Ключевые слова: экономические реформы, философские основы, рыночная экономика, прозрачность, государственное управление, либерализация, человеческий капитал, конкуренция, модернизация.

Abstract (English)

This article analyzes the philosophical foundations and key economic directions of the reforms being carried out in Uzbekistan. It highlights the strengthening of market mechanisms, increased transparency, optimization of the state's role, investment in human capital, and expansion of international cooperation. The article also evaluates the effectiveness of these reforms, identifies current challenges, and provides recommendations for further improvement.

Keywords: economic reforms, philosophical foundations, market economy, transparency, public administration, liberalization, human capital, competition, modernization.

Kirish

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy yo‘nalishlari tubdan yangilandi. Ayniqsa, 2017-yildan boshlab iqtisodiy islohotlar yangi bosqichga ko‘tarilib, bozor mexanizmlarini kuchaytirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan strategik vazifalar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning falsafiy asoslari inson manfaatlari, erkinlik, adolat, raqobat va ochiqlik tamoyillariga tayanadi. Mazkur maqolada O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun-mohiyati, ularning falsafiy negizi hamda amaliy natijalari yoritiladi.¹

Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati va rivojlanish istiqbollari

13-may kuni Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida O‘zbekiston Ekologik partiyasi a‘zolari uchun uch kunlik o‘quv-seminar boshlandi. Tadbir O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning mohiyati va ahamiyati, siyosiy partiyalarning dasturiy hujjatlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, partiyalarning saylov kampaniyalaridagi roli kabi dolzarb hamda qamrovdor mavzularga bag‘ishlangan.

Dastlabki kun mashg‘ulotlarida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov ishtirok etdi. Taniqli huquqshunos olim o‘quv dasturi asosida “Konstitutsiyaviy islohotlarning mazmun-mohiyati va rivojlanish istiqbollari” mavzusida ma’ruza qildi.

Akademik A.Saidov qayd etganidek, jamiyat tarixiy rivojlanishining turli bosqichlarida birdek xizmat qiladigan konstitutsiyaviy matnni abadiy yaratib qo‘yishning iloji yo‘q. Binobarin, XX asrning oxirgi o‘n yilligi va XXI asrning dastlabki yigirma yilligi dunyo huquqiy tarixiga jahon hamjamiyati a‘zolarining konstitutsiyaviy tuzumida konstitutsiyaviy islohotlarning yangi sifat bosqichiga

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari (2017–2024).

chiqishi, jahon konstitutsiyaviy dunyoqarashida sifat jihatidan chuqur o'zgarishlar davri bo'lib kirdi.

So'nggi 30-yil ichida dunyoning 100 dan ortiq mamlakatida konstitutsiyaviy islohotlar o'tkazildi, 57 davlatda yangi Konstitutsiya qabul qilindi. Zamonaviy globallashuv sharoitida har bir davlat jadal tarzda konstitutsiyaviy rivojlanishning o'z modelini, yo'lini izlamoqda.

O'zbekiston konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirishda katta tajribaga ega. Xususan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida Konstitutsiyaning 21 moddasiga 32 ta o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi.

Bu o'rinda, ayniqsa, 2021 yilgi O'zbekiston Prezidenti saylovi jarayonida barcha nomzodlarning elektorat vakillari bilan uchrashuvlari chog'ida hayotiy talabdan kelib chiqqan va mamlakatimizdagi demokratik islohotlarning mantiqiy davomi bo'lgan muhim taklif – konstitutsiyaviy islohotlarni amalga oshirish tashabbusi ilgari surilgani haqida so'z yuritish maqsadga muvofiq. Ushbu tashabbus aynan saylovchilar – mamlakat aholisining turli qatlamlari vakillari tomonidan ko'tarildi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimiz aholisining keng qatlami konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy tashabbuskori bo'lib maydonga chiqqan bo'lsa, Yurtboshimiz konstitutsiyaviy islohotlarning bosh g'oyaviy ilhomlantiruvchisiga aylandi. Markaziy saylov komissiyasining **2023-yil** 1-may kuni bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi referendumini yakuniy natijalariga bag'ishlangan majlisi va shu mavzudagi brifingda qayd etilganidek, referendumda saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga 19 million 722 ming 809 nafar ovoz beruvchi fuqarolar kiritilgan. Referendumga qo'yilgan masala, ya'ni yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish bo'yicha "ha" deb javob berganlar soni 15 million 34 ming 608 nafarni tashkil etgan.

Qonunni qabul qilish – ishning yarmi, uning ijrosini tashkil etish va ta'minlash qolgan yarmidir, deyilar. Bu naql Konstitutsiyaga ham taalluqli. Shu ma'noda, "O'zbekiston–2030" strategiyasi va O'zbekiston Prezidentining 2023-yil 8-mayda qabul qilingan "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga

oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni asosida yangi tahrirdagi Konstitutsiyani hayotga so'zsiz va to'liq tatbiq etish ishlari boshlandi.

Bundan tashqari, Prezidentimiz 2024-yil 2-fevralda "Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada belgilangan hokimlar va xalq deputatlari Kengashlari vakolatlari tasdiqlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modelini to'liq amalga oshirishga kirishildi.

Globalashuv, raqamlashtirish, iqlim o'zgarishi davri va jadallik bilan o'zgarib borayotgan hayotiy voqelik mamlakatni yanada modernizatsiya qilish, tinchlik, barqarorlik va milliy mustaqillikni mustahkamlash bo'yicha o'ta muhim va dolzarb bo'lgan yangi, kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'ymoqda. Shu tariqa, O'zbekistonning konstitutsiyaviy taraqqiyoti umumjahon konstitutsiyaviy islohotlari yo'lidan ketmoqda.

Islohotlar falsafasida "inson – eng oliy qadriyat" tamoyili asosiy mezon sifatida qabul qilindi. ²Shu bois ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlik tizimlari keng ko'lamli o'zgarishlarga uchradi.

Islohotlarning falsafiy asoslari

O'zbekiston iqtisodiy islohotlarining markazida inson omili turadi. Ularning falsafiy poydevori quyidagi tamoyillar bilan belgilanadi:

Inson manfaatlari ustuvorligi

Davlat siyosati avvalo inson hayoti, huquq va erkinliklarini ta'minlashga yo'naltirilmoqda. Bu tamoyil iqtisodiy jarayonlarda ham o'z aksini topib, ijtimoiy himoya, bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining modernizatsiyasiga sabab bo'lmoqda.

Erkinlik va iqtisodiy mustaqillik

Bozor iqtisodiyotining tamoyillariga mos ravishda mulk daxlsizligi, tadbirkorlik erkinligi va davlat aralashuvining kamaytirilishi iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir qildi³

Bozor iqtisodiyotining shakllanishi erkin tadbirkorlik, mulk daxlsizligi va iqtisodiy tashabbus erkinligini ta'minlashni talab qilmoqda. Shuning uchun iqtisodiy faoliyat keskin darajada liberallashtirildi, valyuta bozori erkinlashtirildi, soliq siyosati soddalashtirildi.

² "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026". Toshkent, 2022.

³ Jahon banki: Uzbekistan Economic Update. World Bank Report, 2023.

Adolatli iqtisodiy muhit yaratish korrupsiyaning oldini olish, byudjet shaffofligini oshirish, davlat xaridlarini ochiq o'tkazish orqali ta'minlanmoqda. Bu tamoyil iqtisodiy islohotlarning falsafiy asosida alohida o'rin tutadi.

Raqobat va samaradorlik

Bozor tizimi to'laqonli ishlashi uchun raqobat muhitini yaratish zarur. O'zbekistonda monopoliyaga qarshi siyosat kuchaytirildi, davlat korxonalari qisqartirilmoqda, xususi sektorning iqtisodiyotdagi ulushi oshirilmoqda.

O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlari

Valyuta bozori liberallashtirildi, bank tizimi isloh qilindi, aksiyadorlik tizimi joriy etildi. Erkin iqtisodiy zonalar rivojlantirilib, investitsiyalar oqimini kuchaytirish choralari ko'rilmoqda.

Davlat boshqaruvini optimallashtirish

Davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi qisqartirilmoqda. "Raqamli hukumat", "Elektron litsenziya", "Elektron soliq" tizimlari joriy qilindi. Davlat xizmatlari 70% dan ortig'i onlayn ko'rsatilmoqda.

Iqtisodiy liberallashtirish

Tadbirkorlikka to'sqinlik qilayotgan ma'muriy tartiblar qisqartirildi, soliq stavkalari pasaytirildi, bojxona jarayonlari soddalashtirildi. Erkin bozor munosabatlarini rivojlantirish natijasida xususi sektor iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylandi.

Davlat xarajatlari ochiqligini ta'minlash, korrupsiyani kamaytirish va raqamli boshqaruvni joriy etish orqali iqtisodiy adolatni mustahkamlash⁴

Ta'lim tizimi isloh qilindi, oliy ta'lim qamrovi 10% dan 40% ga oshdi. Sog'liqni saqlash sohasida modernizatsiya jarayonlari olib borilmoqda. Mehnat bozorida kasbiy qayta tayyorlash dasturlari kengaydi.

Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini faollashtirdi. Xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlik kuchaytirildi. Eksport geografiyasi 200 dan ortiq davlatni qamrab olmoqda.

Monopoliyalashgan sohalarni isloh qilish, xususi sektor ulushini oshirish bozor mexanizmlarining samaradorligini kuchaytirdi⁵

Islohotlarning amaliy natijalari

Makroiqtisodiy barqarorlik

⁴ Osiyo taraqqiyot banki: Country Partnership Strategy for Uzbekistan. ADB, 2022.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi statistika hisobotlari, 2020–2024.

So‘nggi yillarda YAIM o‘shish sur‘ati 5–6% atrofida bo‘lib, regiondagi eng yuqori natijalardan biri sifatida qayd etilmoqda.

Tadbirkorlik rivoji

Yiliga 100 mingdan ortiq yangi korxonalar tashkil etilmoqda. Litsenziyalar soni 2 barobarga qisqartirilgan.

Investitsiyalar o‘shishi

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi keskin oshib, yangi sanoat loyihalari yo‘lga qo‘yildi.

Transport va infratuzilma modernizatsiyasi

Avtomobil yo‘llari, elektr tarmoqlari, suv ta‘minoti tizimi modernizatsiya qilindi. “Yashil energetika” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mavjud muammolar va takliflar

Muammolar

Raqobat muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi

Energiya ta‘minotidagi uzilishlar

Kichik biznes uchun moliyaviy resurslar yetishmasligi

Ayrim sohalarda kadrlar yetishmasligi

Korrupsiya holatlari

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar chuqur falsafiy asosga ega bo‘lib, ularning markazida inson manfaatlarini, adolat, erkinlik, raqobat va ochiqlik tamoyillari turadi. Islohotlar natijasida O‘zbekistonning xalqaro maydondagi iqtisodiy nufuzi oshib, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga o‘tish jarayoni tezlashmoqda. Biroq mavjud muammolarni bartaraf etish orqali islohotlarning samaradorligini yanada kuchaytirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari (2017–2024).

2. “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi – 2022–2026”. Toshkent, 2022.

3. Jahon banki: Uzbekistan Economic Update. World Bank Report, 2023.

4. Osiyo taraqqiyot banki: Country Partnership Strategy for Uzbekistan. ADB, 2022.

5. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi statistika hisobotlari, 2020–2024.